



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 24-aprel

VII-8-46-11-0-K/25

Farg‘ona viloyati

### **Viloyat hududlarida suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investisiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni bilan, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar, suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab sohada davlat siyosatini yurituvchi vakolatli organ va narxlarni (tariflarni) tartibga solish organi xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma‘qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi, bunda, suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflarni o‘rnatilgan tartibda shakllantirish va belgilashda iste‘molchilar uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini to‘liq qoplash nazarda tutiladi, shuningdek, suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish xarajatlari hisobga olinishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 17-iyul kuni “Hududlarda ichimlik suv va kanalizatsiya tizimini yaxshilash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 59-sonli bayoni 7-band 6-xat boshisida “suv ta‘minoti hududiy korxonalarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish xarajatlarini inobatga olgan holda, tariflarni xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlash tartibini ishlab chiqish nazarda tutilsin” deb belgilangan.

Shunga ko‘ra, “Farg‘ona suv ta‘minot” AJ 2025-yil 1-apreldagi 01-01/424-sonli xat orqali murojaat qilib, viloyat hududlarida suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni (keyingi matnlarda - tariflar) qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash masalasini xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritilishini so‘ragan.

**Ma‘lumot uchun:** xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 25-oktabrdagi VI-60-103-12-0-K/23-sonli qarori bilan aholi uchun ichimlik suv 1m<sup>3</sup> uchun 1 900 so‘m (QQS bilan

*birga 2128 so‘m), budget va boshqa tashkilotlar uchun 1m<sup>3</sup> uchun 2 991 so‘m (QQS bilan birga 3 350 so‘m), aholi uchun oqava suv 1m<sup>3</sup> uchun 450 so‘m (QQS bilan birga 504 so‘m), budget va boshqa tashkilotlarga 1m<sup>3</sup> uchun (QQS bilan birga 870 so‘m) miqdorida belgilangan.*

*Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.12.2023-yildagi O‘RQ-891-son qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunning 4-moddasi 16-bandiga muvofiq 2024-yilning 1-aprelidan boshlab Soliq kodeksining 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan Suv ta‘minoti, kanalizatsiya bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinishi bekor qilinganligi sababli amalda bo‘lgan mazkur tariflarga tegishli o‘zgartirish kiritilib, ichimlik suv va oqava xizmati narxlari (tariflari) aholi uchun ichimlik suv 1m<sup>3</sup> uchun 2128 so‘m(QQSni hisobga olgan holda), budget va boshqa tashkilotlar uchun 1m<sup>3</sup> uchun 3350 so‘m (QQSni hisobga olgan holda), aholi uchun oqava suv 1m<sup>3</sup> uchun 504 so‘m (QQSni hisobga olgan holda), budget va boshqa tashkilotlarga 1m<sup>3</sup> uchun 870 so‘m (QQSni hisobga olgan holda) miqdorida belgilangan.*

Bugungi kunda davlat dasturlari asosida viloyatda suvlashmagan aholi yashash punktlarini ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlari bilan ta‘minlash, qurib bitkazilgan ichimlik va oqova suv inshootlari va tarmoqlari, jamiyat balansiga kirim qilinishi natijasida qo‘shimcha yillik amortizatsiya (eskirish) xarajati 48.2 mlrd so‘mga ortishi, mutanosib ravishda jamiyatning ishchi-xodimlariga to‘lanayotgan ish haqi miqdori ham oshib, ish haqi xarajatlarini 2023-yilga nisbat 48% ga yaqin o‘shishi natijasida yillik ish haqi fondi 120,0 mlrd so‘mga ortishi va Hukumat kafolati ostida olingan kreditlarni qaytarish xarajatlari yillik 9,6 mlrd.so‘mga ortishi, elektr energiya xarajatlari 2024-yilda 89,6 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, joriy yil 1-maydan elektr energiya tarifining ortishi natijasida 96.9 mlrd.so‘m xarajat qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni qayta ko‘rib chiqish talab etilmoqda.

“Farg‘ona suv ta‘minot” AJ tomonidan taklif etilgan tariflar dastlabki tarzda narxlarni tartibga soluvchi organ ya‘ni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shuningdek viloyat hokimligi ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli xulosa tasdiqlangan.

Shunga ko‘ra, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar va davr xarajatlarini inobatga olib, ichimlik suv va oqava suv xizmatlari narxlari aholi uchun ichimlik suv 1m<sup>3</sup> uchun 3 078 so‘m (QQS bilan birga 3 448 so‘m), budget va boshqa tashkilotlar uchun 1m<sup>3</sup> uchun 6 200 so‘m (QQS bilan birga 6 944 so‘m), aholi uchun oqava suv 1m<sup>3</sup> uchun 650 so‘m (QQS bilan birga 728 so‘m), budget va boshqa tashkilotlarga 1m<sup>3</sup> uchun 1 550 so‘m (QQS bilan birga 1 736 so‘m) miqdorlarining tasdiqlanishi bo‘yicha taklif va xulosa berilgan.

Mazkur taklif etilayotgan narxlar (tariflar) xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, kengash qarori loyihasi tayyorlanib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga qo‘yilib, jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Viloyatda suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlarini ko‘rsatish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, hududlarda ichimlik suvi va oqava suvi tizimini yaxshilash, shuningdek suv ta‘minoti tashkilotining moliyaviy barqarorligini oshirish orqali suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlarini rivojlantirish hamda

modernizatsiya qilish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

## **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-son Farmoni bilan, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab sohada davlat siyosatini yurituvchi vakolatli organ va narxlarni (tariflarni) tartibga solish organi xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma’qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. “Farg‘ona suv ta’minot” AJning 2025-yil 1-apreldagi 01-01/424-sonli xati hamda bu bo‘yicha viloyat hokimligining xulosasi inobatga olinsin.

3. Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama qilinib, viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘grisidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

4. Viloyat hududlarida suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliev), “Farg‘ona suv ta’minot” AJ (M.Yuldashev), O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xuzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (E.Usmonov), O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat xududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan tasdiqlangan viloyat hududlarida suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni o‘rnatilgan tartibda qo‘llab borilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini olib borsin.

6. Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Dolimov hamda “Farg‘ona suv ta’minot” AJ (M.Yuldashev)ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-son Farmoni bilan, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv sohasida investitsiya loyihalarini saralash, amalga oshirish hamda ularning natijadorligini monitoring qilish bo‘yicha loyiha takliflari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlarida muhokama qilinishi va faqatgina ularning roziligi bilan amalga oshirilishi shart va har bir loyihaning bajarilishi holati muntazam ravishda tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari tomonidan joylarga chiqqan holda monitoring qilib borilishi tartibi o‘rnatilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

7. “Farg‘ona suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyati (M.Sh.Yuldashev)ga:

ichimlik suv va oqova suv tarmoqlarini rivojlantirish, ichimlik suv va suv tozalash inshootlari, suv o'tkazgich va oqova suv tarmoqlarining texnik soz holda foydalanishini ta'minlash;

iste'molchilar bilan ichimlik suvi xizmatlari uchun doimiy inventarizatsiyani (xatlovni) o'tkazish va iste'molchilar bilan shartnomalar tuzish;

ichimlik suvini tayyorlash hamda oqova suv xizmatlari xarajatlarini kamaytirish choralarni ko'rish, shuningdek to'lov tariflarini to'g'ri qo'llanilishi tashkil etish;

uy joy mulkdorlari kengashlari, shirkatlar boshqaruv vakolatiga ega shaxslar bilan jamoat tuzilmalari va fukarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan ichimlik va oqova foydalanish xizmatlari uchun to'lovlarni to'liq yig'ish borasida o'zaro hamkorlik qilish;

foydalangan ichimlik suv va oqova xizmatlari uchun o'z vaqtida va belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirilishini nazorat qilish, ta'minlash va yuzaga kelgan debitorlik qarzdorliklarni undirish choralarni ko'rish;

ichimlik suv va oqova suv tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

oqova suvlarni belgilangan tartibda tozalashga qabul qilish maqsadida quvur va tarmoqlarda kutilmagan nosozliklarni o'z vaqtida oldini olish, shuningdek nosozliklarni bartaraf qilish, ularning sabablarini chuqur o'rgangan holda takrorlamaslik choralarni ko'rish;

iste'molchilarga Davlat standartlarida belgilangan talablariga javob beradigan sifatli ichimlik suvini yetkazib berish;

jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun zarur shart sharoitlarni yaratish, ko'rsatiladigan xizmatlarga belgilangan tartibda narxlarni shakllantirish tartibini takomillashtirish choralarni ko'rsin.

8. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov) hududlarda (mahalla fuqarolar yig'inlarida) mazkur tariflarni to'g'ri qo'llanilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirib borish tavsiya etilsin.

9. O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasi Farg'ona viloyat hududiy birlashmasi (A.Raxmonaliev) hududlarda mazkur tariflarni qo'llanilishi doirasida iste'molchilarning huquqlari bajarilishi yuzasidan tegishli ishlarni amalga oshirib borish tavsiya etilsin.

10. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzaev) bilan birgalikda viloyatdagi davlat va nodavlat teleradiokompaniyalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklar muassisligidagi gazetalarda, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida viloyat hududlarida suv ta'minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni e'lon qilinishini tashkil etsin.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining "Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

12. Ushbu Qaror 2025-yil 1-may kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Komilov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati  
Kengashining  
2025-yil 24-apreldagi  
VII-8-46-11-0-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Viloyat hududlarida suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan  
ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan  
narxlari (tariflar)**

<b>Xizmat turi</b>	<b>Aholi uchun</b>		<b>Budjet va boshqa tashkilotlar uchun</b>	
	<b>1 m<sup>3</sup> uchun QQS siz (so‘m hisobida)</b>	<b>1 m<sup>3</sup> uchun QQS bilan (so‘m hisobida)</b>	<b>1 m<sup>3</sup> uchun QQS siz (so‘m hisobida)</b>	<b>1 m<sup>3</sup> uchun QQS bilan (so‘m hisobida)</b>
Ichimlik suv	3 078	3 448	6 200	6 944
Oqava suv	650	728	1 550	1 736

**Izoh:** 2024 yilning 1 apreldan boshlab Soliq kodeksining 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan suv ta‘minoti, kanalizatsiya bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinishi bekor qilingan.